EKOLOGIK HUQUQ VA MAJBURIYATLAR HAMDA ULARNI O‘QITISHNING DOLZARBLIGI

Sodiqova Nozima Xusan qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda hozirgi davrdagi global ekologik vaziyat, uning sayyoraga ta’siri hamda ushbu salbiy holatlar hamda ularni yaxshilashda jamiyatda ekologik huquq va majburiyatlar bo‘yicha huquqiy savodxonlikni oshirishning ahamiyati to‘g‘risida so‘z boradi. Shuningdek ushbu tezisda ekologik huquq va majburiyatlar, umuman olganda ekologik ta’lim sohasidagi xorijiy tajribalar o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Ekologik huquq, ekologik majburiyat, huquqiy savodxonlik, ekologik tarbiya, global muammolar, xalqaro hamkorlik.

Ma’lumki, butun dunyoda odamlar o‘z turmush tarzini munosib darajaga yetkazish, uni yaxshiroq qilish uchun ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faoliyat olib boradi. Tabiiyki, bu jarayon atrof-tabiiy muhit bilan chambarchas bog‘liq. 2025-yil oktabr holatiga ko‘ra, dunyo aholisi soni 8 214 904 753 nafarga yetgan[1]. Albatta, aholi soni doimiy o‘zgarib turadi. Lekin ularning borliq bilan aloqasi doimiydir. Endi o‘ylab qarasak, yer kurrasidagi shuncha odam o‘z hayotiy faoliyati davomida tabiat bilan hisoblashib ish yuritarmikin? Afsuski, biz insonlar manfatimiz uchun tabiiy muhitni qurbon qilyapmiz, shubhasiz, badalini ham o`zimiz to`laymiz. Buning ifodasi o`laroq, sayyorimizda ro`y berayotgan iqlim o`zgarishi natijasida yiliga uch yuz million insonning umri zomin bo`lmoqda[2]. Uch yuz million aholi uning salbiy ta`siri ostida hayot kechirmoqda. Sanoat va qishloq xo`jaligining ta`siri natijasida havo va suv ifloslanishi, tuproq tarkibining buzilishi, sayyorada issiqxona effektining paydo bo‘lishi, uning natijasida esa chuchuk suv miqdorining kamayib ketishi hamda boshqa shunga o‘xshash insoniyat kelajagiga ulkan xavf tug‘diruvchi omillar yuzaga kelmoqda. Ushbu halokatli jarayonning oldini olish, uning zararli ta’sirlarini imkon qadar kamaytirish global miqyosda birlashib harakat qilishni talab etadi. Biz ushbu qilinishi zarur bo‘lgan ishlarning ta’lim-tarbiya sohasi bilan bog‘liqlik jihati to‘g‘risida fikr yuritmoqchimiz. “XXI asrga kelib dunyo hamjamiyati oldida turgan muhim masalalardan biri global miqyosda inson xavfsizligi, xususan, uning bir elementi bo‘lmish ekologik xavfsizlikni ta’minlashdir. Shuning uchun ham ekologiya – tabiatda organizmlar, jumladan, kishilar va ularning atrof-muhit bilan munosabatlariga doir tushuncha, voqelik, hodisa va jarayonlarni tadqiq qiluvchi fan tarmog‘i, ularga oid bilimlarni beruvchi ta’lim yo‘nalishi hamda ular o‘rtasidagi munosabatlarni optimallashtiruvchi amaliyot sohasiga aylangan”[3]. Mamlakatimizda ushbu soha ham munosib darajada rivojlanib bormoqda. Ayni yo‘nalishda ishlab chiqilgan qonun va qonunosti hujjatlari tabiiy muhit sharoitlarini saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy masalalarni belgilab bermoqda. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunining maqsadi inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar uyg‘un muvozanatda rivojlanishini, ekologiya tizimlari, tabiat komplekslari va ayrim obyektlar muhofaza qilinishini ta’minlashdan, fuqarolarning qulay atrof-muhitga ega bo‘lish huquqini kafolatlashdan iboratdir, deb belgilab qo‘yilgan. Ekologik huquq o‘zi nima? “**Ekologiya huquqi** - tabiat, jamiyat va inson o‘rtasidagi mavjud qonuniyatlarni ochib beradi, boshqa ekologiya huquqi institutlarini kengroq o‘rganish uchun nazariy asos hisoblanadi, ekologik siyosatning shakllanishiga va rivojlanishiga keng ta’sir ko‘rsatadi, ekologik-huquqiy ong va tafakkur hamda ekologik-huquqiy ma’naviyat va madaniyatning negizini

[1] https://aniq.uz/uz/statistika/dunyo
[2] Rustamova R.P. M. Ulug’bek nomidagi O’zMU v.b. dotsenti. Ekologiya buzilishining inson salomatligiga ta’siri. Academic research in educational Sciences. ISSN:2181-1385 DOI:10.24412/2181-1385-2022-2-809-814
[3] Nig’matov A. “Ekologiya huquqi” darslik. T.-2012. “Noshir” 4-bet

yaratadi.”[1] Shu o‘rinda ekologik huquq va majburiyatlar tasnifiga to‘xtalib o‘tish o‘rinli, albatta. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra, ekologik huquq va majburiyatlar quyidagicha:

7. Fuqarolarning ekologik huquqlari:
- Toza atrof-muhitda yashash huquqi;
- Tabiatni saqlash va muhofaza qilishda ishtirok etish huquqi;
- Shikoyat qilish va muhofaza organlariga murojaat qilish huquqi;
8. Fuqorolarning ekologik majburiyatlari:
- Atrof-muhitni muhofaza qilish;
- Resurslardan samarali foydalanish;
- Zararsizlantirish va chiqindilarni to‘g‘ri boshqarish;
9. Korxona va tashkilotlarning ekologik majburiyatlari:
- Ekologik monitoring va hisoboti ;
- Ekologik zarar uchun javobgarlik;
- Ekologik xavflarning oldini olish va bartaraf etish choralarini ko‘rish;
10. Davlat organlarining majburiyatlari:
- Tabiatni asrash siyosatini amalga oshirish;
- Ekologik bilim va ma’rifatni oshirish[2].

Ekologik huquq va majburiyatlar borasida aholining huquqiy ongi va huquqiy savodxonligini oshirish asosiy maqsadlardan biri sanaladi. Shu sababli mamlakatimizda ayni sohada tub o‘zgarishlar olib borish bugungi kunda dolzarb mavzuga aylanmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev hududlardagi ekologik holatni yaxshilash va chiqindilar bilan ishlash tizimini takomillashtirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish bo‘yicha 2022-yildagi ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida so‘zlagan nutqida quyidagicha fikr bildirgan edilar: “Avlodlarimiz bizdan keyin ham munosib tabiiy muhitda yashashlari uchun biz tabiatga mehr va e’tibor berishimiz, u bilan uyg‘un bo‘lib yashashimiz kerak. Bu nima degani? Bu – tabiatni toza-ozoda tutish, yer va suv resurslarini, ekologik tizimni asrash, daraxt ekib bog‘ yaratish degani. Eng muhim masala - aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida bosh qotirishimiz zarur… Bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin”. Avvalo Ekologik tarbiya inson ongida tabiatga nisbatan mehr va mas’uliyat hissini shakllantirishdan boshlanadi. Bu jarayonning ildizi esa, albatta, oilaga borib taqaladi. Bola atrof-muhitga qanday munosabatda bo‘lishni avvalo o‘z uyida, ota-onasining kundalik odatlaridan o‘rganadi. Shuning uchun ekologik madaniyatni shakllantirish katta tadbirlardan emas, balki oddiy, kichik harakatlardan boshlanadi. Masalan, suvni behuda oqizmaslik, chiroqni keraksiz paytda o‘chirib qo‘yish, chiqindilarni tartibli tashlash kabi oddiy odatlar bolaga tejamkorlik va tabiatni asrash zarurligini anglatadi. Agar ota-ona bu ishlarni izchil bajarib borsa, bola ham ularni tabiiy hol sifatida qabul qiladi. Bu esa uning kelajakda ekologik ongli inson bo‘lib shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, bolani tabiat qo‘yniga olib chiqish, daraxt ekish, gullarga qarashish kabi faoliyatlar orqali unda tabiatga mehr uyg‘otish mumkin. Bola o‘z qo‘li bilan ekkan niholning o‘sishini ko‘rsa, u tabiatni asrashning qadrini yanada chuqurroq his qiladi. Bu kabi kichik tajribalar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Uy sharoitida ham ekologik tarbiya berishning ko‘plab imkoniyatlari mavjud. Masalan, ortiqcha narsalarni isrof qilmaslik, qayta foydalanish mumkin bo‘lgan buyumlarni ajratib qo‘yish, tozalikni saqlash kabi odatlar bolaga mas’uliyat hissini singdiradi. Eng muhimi, ota-onaning o‘zi bu borada ibrat bo‘lishidir. Albatta, ekologik madaniyatni shakllantirishda oila bilan birgalikda ta’lim dargohlarining o‘rni beqiyos. Lekin fikrimizcha, ekologiya va atrof-muhit mavzusi global tus olib borayotgan hozirgi davrda ekologiya huquqining o‘qitilishi biroz yetarli emas. O‘rganishlardan ma’lumki, O‘zbekiston maktablarida atrof-muhit, biologiya, geografiya fanlari doirasida ekologiya asoslari o‘qitiladi. 6-11 –sinflarda ekologik bilimlar beruvchi maxsus modular mavjud, ammo aynan ekologiya huquqi mavzusi cheklangan miqdorda kiritilgan. Maktablarda bu soha atributiga e’tibor kamroq bo‘lib, ko‘proq ekologiya

[1] “Ekologiya huquqi”. Darslik / J.T. Xolmo‘minov, N.B. Shoimov, O.A. Kamalov, O.J. Xolmuminov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. 16-bet.
[2] “Tabiatni muhofaza qilish to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonuni. 09.12.1992y.

fanlari va tabiatni muhofaza qilishga urg‘u beriladi. Ekologik huquqiy bilimlarni mustahkamlash uchun o‘quv dasturlarini takomillashtirish zarur. Oliy ta’limda esa ekologik huquq mutaxassislik fani mavjud bo‘lib, unda ilmiy va amaliy tayyorgarlik olib borilmoqda. Ta’lim tizimini takomillashtirish va ekologik huquq sohasida kadrlar malakasini oshirish borasida ishlar davom etmoqda. Endi ekologiya huquqini o‘qitish bo‘yicha xalqaro tajribalar bilan tanishsak. Abdug‘aniyeva Maqsuda Tulanova o‘zining “ Ekologik ta’lim va tarbiyada xorijiy tajriba” nomli maqolasida yozilishicha, xalqaro standartlarga monand ravishda ekologik ta’limda atrof-muhit haqida, atrof-muhit yordamida va atrof-muhit uchun ta’limlari mavjud. Bu uchta komponent ekologik ta’lim va tarbiyaning bo‘laklangan masalalarini bir butun yechimini ta’minlaydi. Masalan, G‘arbiy Yevropada bolalar maxsus xo‘jaliklarda yovvoyi hamda uy hayvonlari bilan muloqotda bo‘lishi, hattoki ularni parvarish qilish orqali ekologik ta’lim va tarbiya uch yoshdan boshlanadi.

1. Ta’lim dasturlarining integratsiyasi. Ko‘plab davlatlarda ekologiya huquqi nafaqat alohida fan sifatida, balki atrof-muhit boshqaruvi, xalqaro huquq, ijtimoiy fanlar va iqtisodiyot bilan birlashtirib o‘qitiladi. Misol uchun, Yevropa Ittifoqi universitetlarida ekologiya va atrof-muhit huquqi ko‘pincha “Barqaror rivojlanish” yo‘nalishida o‘rgatiladi.

2. Amaliy yo‘nalish va kazuslarni tahlil qilish. AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda ekologiya huquqi kurslarida haqiqiy sud ishlarining holatlari, xalqaro shartnomalar va milliy qonunlar misollari asosida ish olib boriladi. Bu talabalarni nazariy bilim qatorida amaliy ko‘nikma bilan ta’minlaydi.

3. Xalqaro hamkorlik va almashuv dasturlari. Yevropa universitetlari Erasmus+ kabi grantlar yordamida talabalar va professor o‘qituvchilarni boshqa mamlakatlarga safar qilish, tajriba almashish imkoniyatini berishadi. Bu ekologiya huquqini o‘rganishda global qarashni shakllantiradi.

4. Raqamli resurslaar va onlayn ta’lim. COVID-19 pandemiyasi ta’sirida ko‘plab universitetlar ekologiya huquqi bo‘yicha masofaviy ta’lim tizimlarini rivojlantirdi. Masalan, Harvard va Stanford universitetlarining onlayn kurslari dunyo bo‘yicha mavjud.

5. Mahalliy va xalqaro qonunchilikni solishtirish. Yevropa universitetlarida talabalar xalqaro huquqdan boshlab, mamlakatlararo ekologik masalalar – suv resurslari, havoning ifloslanishi, biologik xilma-xillikni himoya qilish haqida qonunlarni solishtiradi, bu esa ular uchun keng ko‘lamli tahlil imkonini yaratadi.

Ekologiya huquqini o‘qitishda samarali xalqaro tajriba integratsion yondashuv, amaliy holatlar tahlili, xalqaro hamkorlik va zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan boyitilgan. Bu metodlar talabalarni global va mahalliy ekologik muammolarni qonuniy asosda hal qilishga tayyorlaydi. Albatta, mamlakatimizda ham bu borada sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Sohaning yanada yaxshiroq rivojlanishi va yuqori samaraga erishish uchun bir nechta takliflar bermoqchimiz. Birinchidan, ta’lim kontentini yangilash va amaliyotga yo‘naltirish kerak. Bunda ekologik huquq va uni o‘qitish bo‘yicha xalqaro sinalgan hamda ijobiy natija bergan tajribalarni joriy qilish, amaliyotga asoslangan kurslar hajmini kengaytirish yaxshi usul sanaladi. Ikkinchidan, ekologik huquq bo‘yicha maxsus sertifikatli qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish, xalqaro tajriba almashinuvi va stajirovkalarni kengaytirish; uchinchidan, onlayn platformalar va elektron kutubxonalar yaratish (videodarslar, elektron darsliklar, vebinarlar); to‘rtinchidan, “Yashil makon” milliy dasturiga ekologiya huquqini integratsiyalash, hukumat tomonidan ekologik huquq bo‘yicha maxsus grant va stipendiyalarni joriy etish; beshinchidan, ekologik qonunchilikni o‘rgatuvchi ilmiy markazlar va nohukumat tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish; oltinchidan, ushbu huquq tarmog‘ining ahamiyatini ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ib qilish, maktab va oliy ta’lim muassasalarida ekologik huquq bo‘yicha targ‘ibot ishlarini kuchaytirish eng foydali yo‘llar sanaladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, O‘zbekistonda ekologiya huquqini o‘qitishni yaxshilash uchun kompleks yondashuv zarur, ya’ni ta’lim dasturlarini zamonaviylashtirish, kadrlar malakasini oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va davlat dasturlari bilan mustahkamlash nazarda tutiladi. Bu esa nafaqat zamonaviy bilimlar tizimini yaratadi, balki mamlakatning ekologik barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni. 09.12.1992y.
3. Sh.Mirziyoyevning “Chiqindilar bilan ishlash tizimini takomillashtirish va hududlardagi ekologik holatni yaxshilash, “Yashil makon” umummiliy loyihasini amalga oshirish bo‘yicha 2022-yildagi ustuvor vazifalar” yuzasidan o‘tkazilgan videoselektorda so‘zlagan nutqi.
4. https://aniq.uz/uz/statistika/dunyo
5. Rustamova R.P. M. Ulug‘bek nomidagi O‘zMU v.b. dotsenti. Ekologiya buzilishining inson salomatligiga ta’siri. Academic research in educational Sciences. ISSN:2181-1385 DOI:10.24412/2181-1385-2022-2-809-814
6. Nig‘matov A. “Ekologiya huquqi” darslik. T.-2012. “Noshir” 4-bet
7. J.T.Xolmo‘minov, N.B.Shoimov, O.A.Kamalov, O.J.Xolmuminov. “Ekologiya huquqi”. Darslik, T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. 16-bet.